

1. UMUMIY SHARTLAR

Kredit maqsadi	Birlamchi bozordan uy-joy sotib olish uchun
Hududlar	Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Xorazm, Navoi, Qashqadaryo, Buxoro
Yillik foiz stavkasi	17,5%
Kredit muddati	240 oygacha
Imtiyozli davri	Taqdim etilmaydi
Minimal kredit miqdori	50 mln. so'm
Maksimal kredit miqdori	480 mln.so'mgacha – Toshkent shahar; 380 mln.so'mgacha – Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar
Muddatidan oldin so'ndirish	Mavjud (qo'shimcha to'lovlarsiz)

2. QARZ OLUVCHIGA BO'LGAN TALABLAR

Fuqarolik	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan jismoniy shaxs
Yoshi	18 yoshga tolga va 60 yoshdan oshmagan (kreditning yakuniy muddatida 70 yoshdan oshmagan) (mijoz/birgalikda qarz oluvchi)
Qarz yuki	Barcha kreditlar bo'yicha oylik to'lov tasdiqlangan daromadni 50% dan oshishi kerak emas
Birgalikda qarz oluvchi	Talab etilmaydi
Minimal ish staji	Talab etilmaydi
Minimal daromad talabi	Talab etilmaydi

3. BOSHLANG'ICH BADAL

30% dastlabki to'lov – quyidagi shartlardan biri bajarilgan taqdirda:

- Karta aylanmasi
- Ijobiy kredit tarixi
- Avtomobilga egalik qilish (3 yildan ortiq bo'lmagan)
- Ko'chmas mulkka egalik qilish

40% boshlang'ich to'lov – quyidagi shartlarning barchasi bajarilgan taqdirda:

- Karta aylanmasi
- Kredit tarixi mavjud emas
- Aktivlar (avtomobil yoki mulk) mavjud emas
- O'z-O'zini band qilgan shaxs sifatida kamida 2 yil oldin royxatdan otgan

50% boshlang'ich to'lov – quyidagi shartlarning barchasi bajarilgan taqdirda:

- Kredit tarixi mavjud emas
- Aktivlar (avtomobil yoki mulk) mavjud emas
- O'z-O'zini band qilgan shaxs sifatida 2 yil oldin royxatdan otmagan



Mobil ilova

QR-kodni skanerlab yuklab oling. To'lovlar va o'tkazmalar bo'yicha ma'lumotlar, xaridlar tarixi, 24/7 moliyaviy xizmatlar imkoniyati

+998(78)150-11-22
info@ipotekabank.uz

50% — dastlabki to'lov qo'llaniladi

Eslatma: Agar mijozning oxirgi 3 oy ichida faol mikroqarzi bo'lsa, uning miqdori dastlabki to'lovga qo'shiladi

4. TA'MINOT

- **Majburiy ta'minot:** Sotib olinayotgan uy-joy garovi
- **Garovga qo'yiladigan talab:** 117,5% (uy-joy qiymatidan kam bo'lmagan miqdorda)

5. TALAB QILINADIGAN HUJJATLAR

- Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (**pasport, ID-karta yoki ularni almashtiruvchi boshqa hujjat**)
- O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnomasi
- Mijoz deklaratsiyasi (**bankda to'ldiriladi**)
- Oldi-sotdi shartnomasi
- Uy tayyorligini tasdiqlovchi hujjatlar (**kadastr hujjatlari va uy topshirish dalolatnomasi**)
- **Qo'shimcha daromadlar (agar mavjud bo'lsa):** Ijara daromadi — agar ijara shartnomasi soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa va oxirgi 6 oy davomida mijoz nomidagi ko'chmas mulk uchun soliq to'lovlari tasdiqlansa, qabul qilinadi

Daromad tekshirish bo'yicha eslatma: Oxirgi 6 oydagi karta aylanmasi Uzcard va Humo tizimlari bilan integratsiya orqali avtomatik tarzda bank tomonidan tekshiriladi. Agar mijozning kartasida aylanma bo'lmasa va u 50% miqdorida dastlabki to'lov qilsa, uning qarzi yuki bankda to'ldirilgan deklaratsiya shakli asosida hisoblanadi

6. QO'SHIMCHA MA'LUMOT

- Mijoz (birgalikda qarz oluvchi)ning kreditga layoqatligini aniqlash qarzi yuki bo'yicha va kredit tarixi bo'yicha talablar inobatga olingan holda aniqlanadi;
- Mijozning to'lov qobiliyatini aniqlagan holda kreditni annuitet/differensial shaklida, qaytarish jadvalini 4-20-sana oralig'ida o'rnatish lozim;
- Kreditning muddati kelgan qismini qarz oluvchining (birgalikda qarz oluvchilar) tijorat banklardagi bank kartasidan akseptsiz tartibda mablag'lar yechib olinadi;
- Oson ipoteka kreditini maksimal kredit miqdoridan yuqori bo'lganda, mijoz kreditning yetmagan qismiga "Tijorat" ipoteka krediti mahsulotidan foydalanishi mumkin;
- Mijoz dastur doirasida ajratiladigan ipoteka kreditlaridan birinchi marotaba foydalanayotgan bo'lishi lozim (2024 yilgi dasturdan boshlab ajratiladigan kreditlarga nisbatan tadbiriq etiladi);
- Mijozga sug'urta to'lovi bank tomonidan qoplab beriladi;
- Ushbu pasport subsidiya asosida ajratiladigan ipoteka kreditlariga ham tadbiriq etiladi (VMQ-182, VMQ-749);
- Rasmiy daromadi bo'lmagan o'zini o'zi band, birgalikda qarz oluvchi talab etilmaydigan segmentdagi mijozlarga ilgari berilgan ipoteka kreditlarini qayta rasmiylashtirishga ruxsat etilmaydi
- Foiz stavkasi mutanosib ravishda kamaytirish mexanizmi Markaziy bankning asosiy stavkasi 14 foizdan pasaygan taqdirda qo'llaniladi, oshirilgan holatda esa foiz stavkasi o'zgarishsiz qoladi (Markaziy bankning asosiy stavkasi + bank marjasi)

7. BUXGALTERIYA HISOBI

14941000.....530 o'zini o'zi band qilgan (mijoz unikal kodi bilan)



Mobil ilova

QR-kodni skanerlab yuklab oling. To'lovlar va o'tkazmalar bo'yicha ma'lumotlar, xaridlar tarixi, 24/7 moliyaviy xizmatlar imkoniyati

+998(78)150-11-22
info@ipotekabank.uz